

**ERKIN VOHIDOV IJODINING O'ZIGA XOSLIGI*****O'ktamova Orasta Rustamjon qizi****O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi**Ilmiy rahbar:****G.Imomqulova****O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
filologiya fakulteti assistenti*

Annotatsiya: *O'zbek adabiyotining yirik zabardast vakillaridan biri Erkin Vohidov ham o'z uslubi va yo'nalishiga ega bo'lgan ijodkor sanaladi. Erkin Vohidov o'z uslubini, badiiy mahoratini goh lirikada, goh mumtoz poetikada, goh tarjimada, goh dramaturgiyada namoyon etib, bir qator ibratli yutuqlarga erishgan. Shoirning jiddiylikka yo'g'rilgan she'rlari bilan bir qatorda hazil-mutoyiba, hajviya va yumor bilan to'yintirilgan betakror she'riyati ham o'z o'quvchilariga egadir.*

Kalit so'zlar:*uslub, mahorat, hajv, Matmusa, turkum, latifa.*

Har bir shoir uslubining mukammal ko'rinish kasb etishida, u yashab ijod etgan davrning turli sohalardagi hayot tarzi, sharoiti hamda adabiy jarayoni muhim ahamiyatga ega. Adabiyotshunos olim I.Haqqul bu borada shunday yozadi: —Davruhi, zamon nafasi, jamiyat dardi ham dastlab ijodkor shaxsiga ta'sirini o'tkazib, undan so'ng asarlariga ko'chadi.[2, 20]. Uslub san'atkor ijodiy qobiliyatining samarasi, shu bilan birga, ijodiy qobiliyat yetukligi, originalligining o'ziga xosligi ifodasi. Uslub orqali ijodkorning shaxsiyati, ijodiy individuallik kamoloti, adabiy jarayondagi mustaqilligi, badiiy tafakkur tipi, ijodiy mahorati anglashiladi. Uslub ijodkor badiiy olamidagi original ifoda va yechimlarni jamlaydi, ko'rsatadi. Shu ma'noda o'zbek adabiyotining yirik zabardast vakillaridan biri Erkin Vohidov ham o'z uslubi va yo'nalishiga ega bo'lgan ijodkor sanaladi. Erkin Vohidov o'z uslubini, badiiy mahoratini goh lirikada, goh mumtoz poetikada, goh tarjimada, goh dramaturgiyada



namoyon etib, bir qator ibratli yutuqlarga erishgan. Shoirning jiddiylikka yo'g'rilgan she'rlari bilan bir qatorda hazil-mutoyiba, hajviya va yumor bilan to'yintirilgan betakror she'riyati ham o'z o'quvchilariga egadir.

Adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov hajviy, komik-yumoristik yo'nalish haqida gapirar ekan, shunday deydi: "Yozuvchi hajvda har xil uslublardan foydalanishi mumkin. Shu asosda nuqson va kamchiliklarni, hayotda uchrab turadigan illatlarni qavartirib, ayrim joylarda oshirib tasvirlashi, zarur paytlarda noreal situatsiyalardan real xulosalar chiqarib, kamchiliklarni sog'lom nuqtadan turib fosh qila bilishda, hayot bir daryo ekanligini, unga tushib qolgan ba'zi bir xas-cho'plar, shox-shabbalar, shiddatli oqim natijasida paydo bo'lgan yengil ko'piklar uning tagli oqimiga putur yetkazishini anglagan holda ish tutishidadir". Erkin Vohidov shunday ish tuta olgan ijodkor sifatida o'zining "Donishqishloq latifalari" rukni ostidagi ijod namunasida komik-satirik detallar, belgi-chiziqlar topib ishlatganki, hayotning salbiy tomonlarini inkor etishda o'ziga xos yumoristik galeriya yarata olgan. Birgina Matmusa obrazining o'zi fikrimizning isbotidir. Ammo shoir kichik to'rtliklari orqali ham yumor vositasida o'z intellektual saviyasini namoyon qila olgan. Shoirning istiqloq yillarida yaratgan she'rlari orasida hajviy mavzu alohida o'rin tutadi. Shoirning "Donishqishloq latifalari" kabi turkum hajviy she'rlarida mustabid mafkuraning salbiy jihatlarini yoritilgan bo'lsa, so'nggi davrdagi asarlarida ijtimoiy hayotda uchrab turadigan illatlar, inson atalmish murakkab tilsimning o'zligi bilan bog'liq muammolar aks ettirilganligining guvohi bo'lish mumkin.

"Donishqishloq latifalari" turkumiga diqqat qilsangiz, uning kitobxon qah-qahasini jumbushga keltiradigan latifalardan iborat ekanligiga guvoh bo'lasiz. Lekin har bir latifaning zahirida davrning ijtimoiy yutuq, kamchiliklari yumorga o'rab beriladi. Xalq og'zaki ijodida hayotning og'ir-yengilini, achchiq-chuchugini, yaxshi-yomonini, ezgu va noshud voqealarini, musbat va manfiy munosabatlarni ulug'lovchi xalq kuychisi obrazi yaratilgan. O'zbeklarda Afandi, qozoqlarda Aldarko'sa, tojiklarda mulla Mushfiq, turkmanlarda Mirali kabi donolar obrazi xalq qiyofasini ifodalab kelgan. Erkin Vohidov o'z hajviy lirikasida ana shu donishmand xalq obrazlari vakillarining zamonaviy tipi – Matmusa obrazini yaratgan.



“Matmusaning bog‘i” latifasida davrimizning nihoyatda muammoli masalalarini yengil va achchiq kulgu ostiga oladi. She’rda Matmusa yaratgan bog‘ga mas’ullar belgilanadiki, butun bir qishloq aholisiga shtat beriladi. Natijada cho’t qoqishga o’n nafar, pul sanashga qirq nafar odam tayinlanadi: “Matmusaning bog‘i” latifasida davrimizning nihoyatda muammoli masalalarini yengil va achchiq kulgu ostiga oladi. She’rda Matmusa yaratgan bog‘ga mas’ullar belgilanadiki, butun bir qishloq aholisiga shtat beriladi. Natijada cho’t qoqishga o’n nafar, pul sanashga qirq nafar odam tayinlanadi:

Boshliq bo‘lmas albatta

Bir juft o‘rinbosarsiz.

To‘rtta zavga sakkizta

Yordamchi ham zararsiz.

Cho’t qoqishga o’n kishi,

Pul sanashga qirq odam.

Yarim qishloq – zampompom,

Yarimqishloq – pomzamzam.

Bir yil o‘tib, bog‘ taftish qilingach, shtatlarni qisqartirish masalasi ko‘riladi va bog‘ rahbari shtati qisqartirilib, bog‘ rahbarsiz qoladi:

Bir yil o‘tgach donolar

Bog‘ni taftish qildilar.

O‘rgandilar, hamma ish

Joyida deb bildilar.

Faqat shtat qisqartish

ZaruraOtga o‘xshadi.

Buyruq bo‘ldi, Matmusa

Bog‘bon ishdan bo‘shadi.



Shoir shtat masalasida “xodim ko‘pmi qumursqami?” deya achchiq haqiqatni fosh etish bilan birga yana bir kulguni qistaydigan hodisani qo‘shib qo‘yadi. Hech bo‘lmaganda telefonlik yumishini shakllantirishni beixtiyor masxara va kulgu ostiga oladi. Ko‘rinadiki, “Donishqishloq latifalari”da jamiyatda mavjud illatlar yumoristik va satirik kulgu orqali ifoda etiladi. Xususan, yakka shaxsga sig‘inish, “katta”larning yo‘rig‘idan chiqmaslik, jamiyatning ongsiz vakili kabi o‘zining mavhum kelajagi tomon odimlash, buyruqbozlikka ko‘nikmaning shakllantirilganligi, o‘z manfaati uchun haqni nohaq deyishga tayyor bo‘lish kabi illatlar qoralanadi.

Umuman, ushbu turkumning o‘ziga xos jihati shundaki, undagi she’rlarning yagona qahramoni – Matmusaning mavjudligi, yagona makon – Donishqishloqdagi hangomalar aks ettirilganligi, yagona zamon, ya’ni Matmusa yashayotgan zamon tasvirlanganligi, she’rlarning hammasi hajviy usulda yozilganligi, g‘oyaviy-mavzuviy jihatdan umumiy mazmunni, ya’ni Matmusa bilan bog‘liq latifalar tasviriga bag‘ishlanganligi, she’rlardagi yaxlit tasvir noma’lum, ya’ni hayotda borligi gumon bo‘lgan makon bo‘lsa-da, badiiy to‘qima uchun o‘rinli bo‘lgan shartli-kinoyaviy nomlangan Donishqishloq tushunchasining mavjudligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 1997. – B. 283.
2. Haqqul I. Badiiy matn va tahlil muammolari. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2012, 4-son.
3. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. – T.: Fan, 2007. – B. 259.